

PEDAGOGIG INNOVATSIYALAR: YANGI AVLOD TARBIYASIDA MUXIM OMIL

Toshkulova Lola Hudoyberdi qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich magistranti

E-mail: lolatashkulova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik innovatsiyalarning yangi avlod tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Unda innovatsion yondoshuvlarning ta'lim jarayoniga ta'siri, yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi va zamonaviy ta'lim metodlarining amaliy qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, O'zbekiston va xalqaro tajriba asosida pedagogik innovatsiyalarning samaradorligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiya, texnologiya, o'quvchi, o'qituvchi, visual material, innovatsiya, fikrlash, natija.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИННОВАЦИИ: ВАЖНЫЙ ФАКТОР ВОСПИТАНИЯ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: В данной статье анализируется значение педагогических инноваций в воспитании нового поколения. Рассказывается о влиянии инновационных подходов на образовательный процесс, их вкладе в личностное развитие молодежи, практическом применении современных образовательных методов. Также рассмотрена эффективность педагогических инноваций на основе узбекского и международного опыта.

Ключевые слова: Педагогическая инновация, технология, ученик, преподаватель, наглядный материал, инновация, мышление, результат.

PEDAGOGICAL INNOVATIONS: AN IMPORTANT FACTOR IN THE UPBRINGING OF THE NEW GENERATION

Abstract: This article analyzes the importance of pedagogical innovations in the upbringing of the new generation. It discusses the impact of innovative approaches on the educational process, their contribution to the personal development of young people, and the practical application of modern educational methods. The effectiveness of pedagogical innovations is also considered based on Uzbek and international experience.

Keywords: *Pedagogical innovation, technology, student, teacher, visual material, innovation, thinking, result.*

Kirish

Pedagogik innovatsiyalar bugungi kunda juda muhim, chunki zamonaviy jamiyat talablariga javob berishi, hozirgi kunda texnologiyalar tez rivojlanmoqda va o‘quvchilarni kelajak kasblariga tayyorlash uchun ta’lim jarayonini yangilash zarur. Pedagogik innovatsiyalar esa o‘quv jarayonini zamonaviy ehtiyojlarga moslashtiradi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun an’anaviy dars usullari har doim ham o‘quvchilarning qiziqishini tortmaydi. Innovatsion yondashuvlar, masalan, interaktiv texnologiyalar, o‘yinlar va vizual materiallar o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Shaxsiy yondashuvda esa har bir o‘quvchi har xil usulda o‘rganadi. Pedagogik innovatsiyalar individual o‘qitish usullarini joriy etishga yordam beradi. Masalan, differensial yondashuv yoki moslashuvchan ta’lim texnologiyalari. Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun innovatsion metodlar, masalan, muammoli o‘qitish va loyihaviy ta’lim o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quv natijalarining samaradorligini oshirish — ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini maksimal darajada rivojlantirishni anglatadi. Pedagogik innovatsiyalar bu natijalarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Quyida qanday qilib innovatsiyalar o‘quv natijalarini oshirishi mumkinligi tushuntiriladi:

1. Ta’lim jarayonining interaktivligi: interaktiv doskalar, raqamli darsliklar va o‘quv platformalaridan foydalanish kiradi bunda o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish va ularning ishtirokini kuchaytirishga qaratiladi natijada o‘quvchilar mavzularni faol o‘rganadi va yaxshi eslab qoladi.

2. Differensial yondashuv va shaxsiylashtirilgan ta’lim: har bir o‘quvchining qobiliyat va ehtiyojlariga mos o‘qitish, zaif o‘quvchilar bilan alohida ishlash, kuchli o‘quvchilarga chuqurlashtirilgan topshiriqlar berish orqaliq amalga oshiriladi natijada har bir o‘quvchining individual o‘sishi va muvaffaqiyatga erishishini korishimiz mumkin.

3. Tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish: muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish va debatlar orqali o‘qitishni o‘z ichiga oladi va o‘quvchilarni muammolarni mustaqil tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatadi natijada o‘quvchilar real hayotda muammolarni hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: onlayn ta’lim platformalari (Kahoot, Quizizz, Google Classroom va h.k.) va virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarni qo‘llash orqaliq

amalgam oshiriladi natijada o‘quv materiallarini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish, eslab qolishni osonlashtiradi.

5. O‘qitish usullarini yangilash: Kooperativ o‘qitish (guruhda ishlash) va Flipped Classroom (ag‘darilgan sinf) usulidan foydalanish orqali, o‘quvchilar o‘zaro bilim almashadi va mustaqil o‘rganishga harakat qiladi.

6. O‘qituvchining roli va pedagogik mahorati: o‘qituvchilarning malaka oshirishi, yangi metodlarni o‘rganishi hamda o‘z ustida ishlashi natijasida tajribali va innovatsion o‘qituvchi o‘quvchilarning natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Pedagogik innovatsiyalar o‘quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Interaktiv vositalar, shaxsiylashtirilgan ta‘lim va zamonaviy texnologiyalar orqali o‘quvchilarning bilim olish darajasi va o‘zlashtirishi sezilarli darajada ortadi, mavzularni yanada chuqurroq tushunadi, bilimlarni amaliyotda qo‘llay oladi va ta‘lim sifati sezilarli darajada oshadi. Pedagogik innovatsiyalarning mohiyatini tushuntiradigan bo‘lsam, pedagogik innovatsiyalar nima ekanligini va ularning ta‘lim tizimidagi o‘rnini, zamonaviy ta‘limda pedagogik innovatsiyalarning ahamiyatini ko‘rsatish va nima uchun hozirgi ta‘lim tizimida innovatsiyalar zarur ekanligi, o‘quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga qanday ta‘sir qilishini yoritib beradi. Innovatsiya so‘zi bu yangilik demakdir, o‘zgarish yoki rivojlanishni ifodalovchi tushuncha bo‘lib, muayyan sohada ilgari qo‘llanilmagan yangi usullar, texnologiyalar yoki yondashuvlarni joriy etishni tushunadi.

Olimlar ta‘limda innovatsiyalardan foydalanishning asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini aniqlashga, kontseptual apparatni yaratishga, vositalarni tanlashga, shuningdek, chegaralarini aniqlashga harakat qilmoqdalar. Pedagogik innovatsiyaning metodologik asoslari pedagogik innovatsiyalarni yaratish, o‘rganish va qo‘llash haqidagi ta‘limotning tuzilishi va asoslari bilan bog‘liq bo‘lgan bilim va faoliyat tizimidir. Innovatsiyaning uslubiy apparati mahalliy ta‘limni modernizatsiya qilishni tahlil qilish, tushuntirish va loyihalashning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Bolalar bog‘chalari, maktablar, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida ikkinchi avlod federal standartlari joriy etilganiga qaramay, e‘lon qilingan innovatsiyalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish jarayonlarida izchillik va yaxlitlik mavjud emas. Innovatsiyalarni amalga oshirishning umumiy holati va shartlari ularga bog‘liq. Mavjud sharoitlar bu jarayonni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin, bu nafaqat o‘z-o‘zidan, balki ongli ravishda boshqarilishi ham mumkin. Innovatsion jarayonning uchta komponentining birligini ta‘kidlash zarur: innovatsiyalarni ishlab chiqish, yaratish, foydalanish. Ta‘limdagi pedagogik innovatsiyalar didaktikadan farqli ravishda uch komponentli jarayonni ob‘ekt sifatida ajratib ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida aytilish mumkinki pedagogik innovatsiya esa ta’lim jarayonini samaraliroq va zamonaviylashtirish uchun yangi metodlar, texnologiyalar va yondashuvlarni ta’limda qo‘llash va amalga oshirishni ko‘zlaydi.

Pedagogik innovatsiyalarning asosiy xususiyatlarini quydagilarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

- Yangilik: Ilgari qo‘llanilmagan usullar va texnologiyalar.
- Rivojlanish: Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.
- Samaradorlik: O‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilash.
- Moslashuvchanlik: Zamonaviy talablarga moslashtirilgan.

Bunga misol qilib, interaktiv doskalar orqali dars o‘tish, o‘yinli o‘qitish usullari (gamifikatsiya), onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish (Google Classroom, Zoom va h.k.) olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov, A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. 2017-yil.
2. Xoshimov, N. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. Samarqand davlat universiteti nashriyoti. 2020-yil.
3. Jalolov, J. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2018-yil.
4. Hasanboev, J. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2005-yil.